



2025-yil 24-iyun

“O'zkiymyosanoat” AJ boshqaruv raisining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha murojaati

Hurmatli hamkasblar, qadrli jamoatchilik va aziz hamkorlar!

Bugun men sizlar bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri - mineral o'g'itlar sanoatida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qat'iy pozitsiyamizni bayon etish uchun murojaat qilmoqchiman. Bu sohadagi har bir harakatimiz nafaqat “O'zkiymyosanoat”ning, balki butun O'zbekistonning taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiya illatiga qarshi kurashish umumdavlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, 2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan majlisda korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar tanqidiy tahlil qilindi.

Majlisda Davlat rahbari: “Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov - bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani - bu global xavf ekanidan dalolat. Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi”, - deb ta'kidladilar.

Jamiyatda korrupsiya muammosini jamoat muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim va muhit yaratilgani, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o'rni va ta'siri ortib borayotgani ta'kidlandi.

Yig'ilishda, shuningdek, hozirgi qonunchilikda korrupsiyaviy jinoyatlarning aniq ro'yxati yo'qligiga e'tibor qaratildi. Parlament tomonidan tasdiqlangan qonunda, asosan, jazoni kuchaytirish bilan cheklanib qolingani, korrupsiyaning oldini olish, fuqarolarni toqatsizlik ruhida tarbiyalash, profilaktika mexanizmlarini yaratish hamda jinoyatni fosh etishga ko'maklashganlarni rag'batlantirish masalalari yetarlicha yoritilmagani qayd etildi.

Yig'ilish natijalariga ko'ra, barcha vazirliklar, qo'mita va agentliklar, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, hamda xo'jalik subyektlari rahbarlarining o'z sohalarida korrupsiyaga qarshi samarali kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasidagi mas'uliyati yanada oshirildi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirishda mineral o'g'itlar ishlab chiqarishning o'rni beqiyos. Bu mahsulotlar yurtimiz yerlarining serhosil bo'lishi, oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi va eksport salohiyatining oshishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish, ularni tashqi bozorlarga eksport qilish va zarurat bo'lganda, import jarayonlarini ham to'g'ri tashkil etish — mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishining asosiy ustunlaridan biridir.

Bu muhim sohada korrupsiyaga yo'l qo'yish - nafaqat biznesga zarar yetkazish, balki mamlakatimiz obro'sini tushirish, investorlar ishonchini susaytirish va iqtisodiy erkinliklarimizni cheklashga olib keladi. Shu bois, barcha sohalarda, ayniqsa mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va savdosi yo'nalishida shaffoflik va qonuniylik tamoyillariga qat'iy amal qilishimiz zarur.

“O'zkiymyosanoat” AJ bu yo'nalishdagi davlat siyosatini to'laqonli qo'llab-quvvatlaydi. Biz davlat organlari, jamoatchilik va xalqaro hamkorlar bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashishga

doimiy e'tibor qaratamiz. Faoliyatimizda elektron tijorat platformalari va monitoring tizimlari joriy etilmoqda, har bir operatsiyaning ochiq va shaffof amalga oshirilishi ta'minlanmoqda.

Sifatga e'tibor qaratish - korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Zero, past sifatli yoki qalbaki mahsulotlar nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga, balki atrof-muhitga ham jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois, har bir mahsulotni ishlab chiqarish, eksport va import jarayonlarida davlat standartlari va xalqaro talablarga qat'iy rioya etish barcha mas'ullar uchun oliy maqsad hisoblanadi. Biz ishlab chiqarayotgan mineral o'g'itlar nafaqat mamlakatimizda, balki jahon bozorida ham yuqori baholanmoqda. Bu esa xalqaro standartlar va shaffof eksport-import siyosatini talab etadi. "O'zkimyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati orqali xalqaro hamkorlarimiz bilan ishonchli va mustahkam munosabatlar o'rnatishga intiladi. Bu yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshiradi.

Qadrlı hamkasblar!

Korrupsiyaga qarshi kurash - faqat davlat organlari yoki shirkat rahbarlarining vazifasi emas. Bu - jamoatchilik, har bir xodim va barcha sheriklarimizning faol ishtirokini talab qiladigan katta jamoaviy harakatdir. Biz korrupsiyani bartaraf etishda har bir shaxsning faol pozitsiyasi va shaxsiy mas'uliyatiga ishonamiz.

Shu bois, "O'zkimyosanoat" AJ o'z faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlik qiladi. Biz har qanday shubhali holatlarni tezda aniqlash va tegishli choralar ko'rishga doimo tayyormiz.

Joriy yilda joriy etilayotgan yangi texnologiyalar va elektron monitoring tizimlari orqali mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, eksport va import jarayonlari doimiy nazoratda bo'ladi. Bu tizimlar orqali har bir operatsiya shaffof va qonuniy amalga oshiriladi, korrupsiya xavflari esa minimal darajaga tushiriladi. Shu tarzda biz nafaqat kompaniyamizning faoliyatini yaxshilaymiz, balki butun tarmoqqa namuna bo'lamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Korrupsiyaga qarshi kurash - bu faqat qonunga rioya qilish emas, balki har birimiz uchun yuklatilgan oliy burchimizdir. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va savdosi sohasida adolat va shaffoflikni ta'minlash orqali biz nafaqat kompaniyamiz, balki mamlakatimiz farovonligiga xizmat qilamiz.

Biz bunda birdammiz, bizda iroda bor, bizda maqsad bor. "O'zkimyosanoat" - rivojlanish va adolat markazi!

Keling, birgalikda korrupsiyaga qarshi qat'iy turib, ishonchli, barqaror va taraqqiy etgan sanoatni barpo etaylik. Yosh avlodimizga obro'li va mo'tabar meros qoldiraylik

Hurmat bilan,

**"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisi
Temirov Odil Shukurovich**

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/message/obrashchenie-predsedatelya-pravleniya-ao-uzkimyosanoat-po-voprosam-borby-s-korruptsiyey>